

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA
ONA TILI VA ADABIYOT FANI BO‘YICHA NOMZODLARINI
TANLOV ASOSIDA ISHGA QABUL QILISH SINIVI UCHUN
FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA ONA TILI VA ADABIYOT FANI BO‘YICHA NOMZODLARINI TANLOV ASOSIDA ISHGA QABUL QILISH SINOVI UCHUN FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya ona tili va adabiyoti fani bo‘yicha nomzodlarni ishga qabul qilish sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezoni va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi ona tili va adabiyoti fani mutaxassislarining fan bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashdan iborat.

Test topshiriqlari kasbiy faoliyatda zarur bo‘ladigan bilimlarni tanish va notanish vaziyatlarda qo‘llash, muammoli holatni tahlil qilish hamda maqbul yechimni tanlashga yo‘naltiriladi.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 15-iyundagi 203-son “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlarini tanlov asosida ishga qabul qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

III. Baholash qamrovi

Ona tili va adabiyoti fani bo‘yicha 40 ta test topshirig‘i taqdim etiladi va ularni bajarish uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Test topshiriqlarida yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni talab qiladigan (Y2) hamda ketma-ketlikni talab qiladigan (Y3) yopiq turdagi topshiriqlardan foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim hamda ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Mutaxassislik fani bo‘yicha tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Tildan amaliy foydalanish		

Talaffuz va imlo	– talaffuz va imlodagi tafovutlarni aniqlay olish; – imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlay olish; – bosh harflar imlosi, qo‘shib, ajratib, chiziqli bilan yozish qoidalarini bilish va foydalana olish; – fonetik o‘zgarishlar (tovush ortishi, almashishi va tushishi)ni farqlay olish.	6
Punktuatsiya	– yozma nutqda tinish belgilari (so‘roq, undov, ko‘p nuqta; vergul, tire, ikki nuqta; nuqtali vergul, qavs, qo‘shirnoq)ni to‘g‘ri qo‘llay olish.	4
Uslubiyat	– qo‘shimchalarning kontekstdagi vazifasini tushunish, farqlash hamda to‘g‘ri qo‘llash; – so‘zlarning kontekstdagi ma‘nosi va vazifasini tushunish, farqlash hamda to‘g‘ri qo‘llash.	4
Til nazariyasi va lingvistik tahlil		
Lingvistik tahlil	– tovushlarni tasniflash, farqlash va amaliy vaziyatda to‘g‘ri qo‘llash; – so‘z va uning ma‘nolarini farqlash va amaliy vaziyatda to‘g‘ri qo‘llash; – so‘z tarkibini ma‘noli qismlarga ajratish, qo‘shimcha turlarini farqlash, amaliy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olish; – so‘z turkumlari - mustaqil, yordamchi va alohida olingan so‘zlar guruhini farqlash, amaliy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olish; – matn (gap)ni hozirgi o‘zbek adabiy tili sintaktik me‘yorlari asosida tushunish, farqlash va tahlil qilish.	10
1. ADABIYOT		
Milliy adabiyot	– umumiy o‘rta ta‘lim dasturiga kiritilgan o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini tushunish, farqlash, personajlar xarakter xususiyatini aniqlash; – umumiy o‘rta ta‘lim dasturiga kiritilgan IX – XIV asr adabiyoti vakillarining ijod namunalarini tushunish, personajlar xarakter xususiyatini aniqlash, tahlil qilish va baholash; – umumiy o‘rta ta‘lim dasturiga kiritilgan XV– XIX asr adabiyoti vakillarining ijod namunalarini tushunish, personajlar xarakter xususiyatini aniqlash, tahlil qilish va baholash;	8

	– umumiy o‘rta ta’lim dasturiga kiritilgan XX asrdan zamonaviy o‘zbek adabiyotigacha bo‘lgan ijod namunalarini tushunish, personajlar xarakter xususiyatini aniqlash, tahlil qilish va baholash.	
Jahon adabiyoti	– umumiy o‘rta ta’lim dasturiga kiritilgan jahon adabiyoti tarixida muhim o‘rin egallagan epik va dramatik asarlarni tushunish, personajlar xarakter xususiyatini aniqlash, tahlil qilish va baholash; – jahon adabiyoti tarixida muhim o‘rin egallagan lirik asarlarni tushunish, personajlar xarakter xususiyatini aniqlash, tahlil qilish va baholash.	4
Adabiyot nazariyasi va badiiy tahlil		
Mumtoz lirika tahlili	– asarning janri, vazni va qofiyasi aniqlash, badiiy san’atlarni farqlash; – mumtoz matn mazmunini anglash, tahlil qilish va baholash.	4
Jami:		40 ta

Kognitiv ko‘nikmalar taqsimoti

2-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo‘llanishini tushunish
2	Qo‘llash	Bilim va tushunchalarni yangi (notanish) kontekstlarda qo‘llay olish
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasini (raw score) hisoblash uchun har bir to‘g‘ri javob uchun 2,5 ball, noto‘g‘ri javob uchun ball berilmaydi. Umumiy eng yuqori natija 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Test topshiruvchi imtihonga shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan keladi va test tashkilotchisi tomonidan belgilangan tartibga rioya qiladi. Imtihon boshlanishidan

oldin test topshiruvchilarga topshiriqlarni bajarish hamda javoblarni belgilash tartibi tushuntiriladi.

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet, quloqchin, elektron eslatma, ruxsat etilmagan bosma yoki elektron materiallardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish va nazoratchi ko'rsatmalariga amal qilmaslik taqiqlanadi. Qoidabuzarlik aniqlanganda, u belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi va test topshiruvchi imtihondan chetlashtirilishi mumkin.

VI. Ona tili va adabiyot fanidan tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

Ona tili

5-sinf. Ona tili darsligi (I, II qism) darslik / K.M. Mavlonova, N.S.Hakimova, M.R.Siddiqov, S.H.Qo'ldosheva; muharrir O.T.Madvaliyev. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024.

6-sinf. Ona tili darsligi I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun, N.Hakimova, M.Siddiqov. Toshkent – 2022.

7-sinf. Ona tili darsligi. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun, N.Hakimova, M.Siddiqov. Toshkent – 2022.

8-sinf. Ona tili darsligi. K.Mavlonova, G'.Hamroyev, Sh.Abduraimov, S.Qo'ldosheva, N.Hakimova. Toshkent – 2025.

9-sinf. Ona tili darsligi. Sh.Abduraimov, M.Siddiqov, S.Atayeva, D.Israfilov. Toshkent – 2025.

10-sinf. Ona tili darsligi. B.Mengliyev, Sh.Abdurahim, K.Mavlonova, M. Siddiqov, S.Atoeva. Toshkent – 2022.

11-sinf. Ona tili darsligi. (1-qism) N.M.Mahmudov, Y.R.Odilov, G.Sh. Ziyodullayeva. Toshkent – 2018.

11-sinf. Ona tili darsligi. (2-qism) B.Mengliyev, Sh.Toshmirzayeva, S.Atoeva, S.Majidova. Toshkent – 2020.

“O'zbek tilining katta imlo lug'ati” – E.A.Begmatov, A.R.Madvaliyev, Y.R.Odilov. Toshkent: “Kafolat print company” nashriyoti, 2023.

“O'zbek tilining izohli lug'ati” – A.Madvaliyev, N.Mahkamov. D.Xudoyberganova, O.Odilov. “O'zbekiston nashriyoti” Toshkent – 2021.

Adabiyot

5-sinf adabiyot darsligi (I, II qismlar). Q.B.Yo'ldoshev, O.O.Olimjonov, N.N.Yusufjonova, S.I.Qambarova, D.B.To'xliyeva; muharrir X.A.Ibrohimov. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024.

6-sinf adabiyot darsligi. Z.Mirzayeva, K.Jalilov Toshkent – 2022.

7-sinf adabiyot darsligi. Z.Mirzayeva, K.Jalilov Toshkent – 2022.

8-sinf adabiyot darsligi. Z.Mirzayeva, N.Qodirova, Q.Mamiraliyev. Toshkent – 2025.

9-sinf adabiyot darsligi. J.Nurmuhammadov, D.Yusupova, O.Olimjanov. Toshkent – 2025.

10-sinf adabiyot darsligi (I, II qismlar). Z.Mirzayeva, K.Jalilov Toshkent– 2024.

11-sinf adabiyot darsligi. 1-qism. B.To‘xliyev, B.Karimov, K.Usmonova Toshkent–2018.

11-sinf adabiyot darsligi. 2-qism. B.To‘xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Toshkent–2018.

Dilnavoz Yusupova “G‘azallar sharhi” – Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi 27-jild. Toshkent – 2022.

VII. Eslatma

Test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan manbalarda aks etgan qonunchilik, kasbiy mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi. Biroq topshiriqlar manbalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri olinmaydi. Test topshiriqlari talabgorning kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, bilimni amaliyotda qo‘llash va asosli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini baholashga qaratiladi.